



MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19534447>

O'zbekiston Milliy Universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Jakbaraliyev Zafarbek

+998936997571

zafarbekjakbaraliyev4@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqola mintaqaning strategik jihatdan muhim davlati sifatida O'zbekistonning rolini tahlil qiladi. Maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo geosiyosiy kontekstida geografik joylashuvi, demografik salmog'i, shuningdek iqtisodiy va energetika yo'laklaridagi markaziy o'rnini ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Markaziy Osiyo, demografiya, resurslar, geosiyosiy, geografik, aloqalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль Узбекистана как стратегически важного государства в регионе. Рассматривается географическое положение Узбекистана в геополитическом контексте Центральной Азии, его демографический вес, а также центральное положение на экономических и энергетических коридорах.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Центральная Азия, демография, ресурсы, геополитика, география, отношения.*

Abstract: *This article analyzes the role of Uzbekistan as a strategically important state in the region. The article examines Uzbekistan's geographical location in the geopolitical context of Central Asia, its demographic weight, as well as its central position on economic and energy corridors.*

Keywords: *Uzbekistan, Central Asia, demography, resources, geopolitical, geographical, relations.*

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy ahamiyati bevosita uning geografik joylashuvi va moddiy-ma'naviy resurlari bilan bog'liq. O'zbekiston muhim savdo yo'llarining asosiy chorraxasida joylashgani bizga qadimdan ma'lum. Bu yo'l hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi balki

o'zining rivojlanish va takomillashish bosqichida. Bugun O'zbekiston - nafaqat juda boy tabiiy - xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni paytda mamlakatimiz yetarlicha moddiy va madaniy imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va



iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob geografik o‘rni bilan qo‘shilgan holda juda katta geografik - siyosiy va strategik qizig‘ish uyg‘ otadi. “Markaziy Osiyo mamlakatlari hududidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy omillarning barchasi, ayniqsa, dunyoda siyosiy - iqtisodiy va xalqaro munosabatlardagi yangi tartib tez sur‘atlar bilan shakllanib bormoqda. Markaziy Osiyodagi geosiyosiy muammolarga oid bo‘lgan ilmiy mavzularni o‘rganish dolzarbligi mintaqadagi ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakat, katta ma‘naviy va madaniy kuch - qudratga ega bo‘lgan O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shni davlatlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida bog‘lovchi xalqa vazifasini o‘tayotganligidan ham kelib chiqmoqda. Bu esa dunyoning barcha katta - kichik davlatlari uchun O‘zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali Yevroosiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o‘rnatish imkoniyatini ochadi. Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, nafaqat xalqaro siyosiy munosabatlarda, balki, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonidagi tashqi siyosatning ilmiy - nazariy asoslarini ishlab chiqish ham bevosita geosiyosat bilan bog‘liq ekanligidandir.”²⁶ O‘zbekistonning mintaqadagi tashqi siyosati ham ochiq, pragmatik va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangani ham davlatni faol geosiyosiy

ahamiyat kasb etishi va o‘zaro aloqalarda muntazam ishtiroki har tomonlama rivojlanishi va barqaror tashqi siyosat olib borishiga katta imkoniyat yaratadi. Mintaqaning barcha mamlakatlari bilan chegaradosh bo‘lishi, uning ko‘ptomonlama aloqa o‘rnatishiga katta hissa qo‘shadi. O‘zbekistonning iqtisodiy geografik o‘rniga to‘g‘ri baho berish respublikaning hozirgi mustaqil rivojlanish pallasida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonning iqtisodiy geografik o‘rni xususiyatlarini uch jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.” O‘zbekiston hududining mikrogeografik o‘rni-uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o‘rnidir. O‘zbekiston qadim Turon zaminida hamisha salohiyati katta davlat bo‘lgan. Bu, ko‘p jihatdan uning geografik o‘rni (markazligi) bilan bog‘liq Yaqin o‘tmish (ya‘ni sho‘rolar hukmronligi yillari)da ham O‘rta Osiyodagi respublikalar bir-birlari bilan ijtimoiy taraqqiyotning ko‘p sohalarida bog‘langan edilar. Birgina transport kommunikatsiyasini o‘laylik. Turkmaniston faqat O‘zbekiston orqali Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston bilan aloqa qilgan. Ayni paytda bu respublikalarning har biri ham Turkmaniston bilan faqat O‘zbekiston orqali aloqa qilgan. O‘z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlarida bunyod qilingan temir yo‘llar, avtomagistral, quvurlar ham bir-birlarini bog‘lagan. Mustaqil davlatchilik qaror topgan hozirgi davrda ushbu aloqalar tarixiy omillar (ya‘ni, qadimiy "Buyuk ipak

²⁶ Jumaniyozov X.S, Nigmanova U.B Uslubiy qo‘llanma /Toshkent 2016 /T 2-3



yo'li" an' analariga muvofiq) asosida rivojlantirilishi O'zbekistonning mikrogeografik imkoniyatlari istiqbolini ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning mezogeografik-o'rni uning birmuncha kengroq miqyosidagi mavqei bilan belgilanadi. Bugungi O'zbekiston jahonga yo'l ochmoqda, jahon hamjamiyatiga dadil kirib bormoqda. Uning bu qutlug' qadamida Markaziy Osiyodan tashqari Kavkaz orti davlatlarining, Turkiyaning, Eroning, Afg'onistonning ulushi bor. Afg'oniston orqali Pokiston (va so'ngra Hind okeani)ga, Eron va Turkiya orqali Yevropaga chiqish ufqlari ochilmoqda. Bu, yaqin qo'shnilarimiz bilan qadimiy aloqalarni qayta tiklashga va shu asosda mamlakatimiz mavqeini yana ham ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning makrogeografik o'rni-jahondagi davlatlar borilayotgan aloqalarda belgilanadi. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p qirrali aloqalari tarixiy haqiqat bo'lib, uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi salohiyati juda katta. O'zbekiston ushbu makrodarajadagi aloqalarini MDHning aksariyat davlatlari bilan rivojlantirmoqda. O'zbekistonning aloqasining 15,5 foizi Rossiyaga to'g'ri kelyapti. Yevrosiyoning buyuk davlati Rossiya Federatsiyasi bilan muntazam aloqadamanfaatlariga mos keladi."²⁷ Shunday ekan, har qanday geografik hududni imkoniyatlari va salohiyati

haqida to'xtaladigan bo'lsak, uning transport tugunlari, ilmiy-texnikaviy yutug'lari va jahon savdo yo'lagida qay darajada ahamiyatli ekani alohida hisobga olinadi. Shu jihatdan O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geostrategik mavqei ancha yuqori ekanini ko'rinib turibdi. Shu bilan birga O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni tobora yaxshilanib bormoqda.

Markaziy Osiyodagi O'zbekistonning geosiyosiy ahamiyatni belgilovchi yana bir muhim omillardan biri uning demografiyasidir.

"Birinchidan, O'zbekiston-mintaqadagi eng ko'p aholi yashaydigan davlat. Bu yerda jami 38,2 milliondan oshdi(2026-yil 1-yanvar holati).²⁸ Bu barcha Markaziy Osiyoning sobiq sovet respublikalaridan ozgina kamroq. Bu holat mintaqada O'zbekistonning demografik ulushi ancha katta ekanligini ko'rsatadi. Mintaqaning qolgan barcha olti mamlakatidan farqli o'laroq, O'zbekiston bir xil gomogen aholi tarkibiga ega. Bu yerda aholining 85 %ni titul millat vakillari tashkil etadi. Bu o'tish davri sharoitida ichki hamjihatlikni ta'minlashning muhim omilidir. Umuman olganda o'zbeklar Markaziy Osiyodagi eng ko'p sonli millat hisoblanadi. Tojikistonda aholining 25%, Qirg'iz respublikasida -15%, Turkmanistonda-10%, Qozoqistonda -3%ga yaqinini

²⁷ BuxDu Geografiya kafedrasi./O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi /uslubiy qo'llanma / Buxoro 2008 /T7-8

²⁸ <https://uza.uz/ar/posts/ozbekiston-demografiyasi-aholi-nikoh-va-migratsiya-812198#:~:text=2026%20yil%201%20yanvar%20holatiga%20ko'ra%2C%20O'zbekistonda,38%20million%2036%2C7%20ming%20kishini%20tashkil%20etdi>



o‘zbeklar tashkil etadi. Turli bahslarga ko‘ra Afg‘onistonda 2-2,5 mln o‘zbeklar yashaydi.”²⁹ Davlatning rivojlanishida bevosita aholining etnik tarkibi katta ahamiyatga shunday ekan O‘zbekiston aholisi mintaqada eng ko‘p sonli bo‘lishiga qaramay, qolgan qo‘shni davlatlar aholisining ham sezilarli qismini o‘zbek millatiga mansub aholi vakillari tashkil etadi. Aynan ushbu raqamlar O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi ro‘li va ahamiyatni kuchayishiga hamda keng qamrovli ta‘sirga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat mamlakatning tashqi siyosatini barqaror rivojlanishda ushlab turishda muhim vazifani bajaradi.

Davlatning qay darajada rivojlanishiga hamda uning ta‘sir doirasini belgilashda aynan iqtisodiy resurslar zaruriyatni taqazo etadi. Shunday sharoitda O‘zbekistonning boy tabiiy resurslarga ega davlat deya ta‘rif bera olamiz. “O‘zbekiston mintaqada eng rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. U shuningdek, tabiiy resurslarga ham boy o‘lka hisoblanadi. Bu resurslarning aksariyati o‘z ko‘rsatkichlariga ko‘ra betakroridir. Ekspertlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar qazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlarda (qazib olish bo‘yicha yetakchilardan biri va zahiralari bo‘yicha

yetakchi o‘rinlarda) turadi. O‘zbekistonda rangli metallarning qirqqa yaqin koni bor. Oltinning balans zahiralari 5,3 ming tonnani tashkil etadi. O‘zbekiston mis va uran ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning yetakchi o‘n mamlakati qatoriga kiradi. U kumush, rux, qo‘rg‘oshin va volfram zahiralari bo‘yicha ham jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Mamlakat ancha katta energetik salohiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, tekshirilgan tabiiy gaz zahiralari mamlakat ehtiyojlarini 30 yilga, neft zahiralari esa — 25 yilga qoplaydi. O‘zbekiston hududida umumiy zahiralari to‘rt milliard tonnadan ko‘proq bo‘lgan 160 dan ortiq neft konlari mavjud. Kondensatlangan gaz zahiralari 630 milliard tonnani, tabiiy gaz zahiralari esa — 5,5 trillion kubometrni tashkil etadi. Aniqlangan zahiralari 2 milliard tonnadan ortiq. O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Ushbu strategik xom ashyoni eksport qilishda O‘zbekiston jahonda AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.”³⁰

Energetika diplomatiyasi ham O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqada tabiiy gaz va elektr energetika tizimlarini integratsiya qilish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan O‘zbekiston-Qozog‘iston gaz quvuri, O‘zbekiston-Turkiya elektr almashinuvi kabi loyihalar mamlakatda

²⁹ S.S.Safoev Markaziy Osiyodagi Geosiyosat/
Toshkent-2005/ T29

³⁰ S.S.Safoev Markaziy Osiyodagi Geosiyosat/
Toshkent-2005/ T31



iqtisodiy inqirozlarni oldini olishga qaratilgan bo'lsada, bu orqali davlatdan Yevropa va Osiyoni har tomonlama bog'laydigan karidor vazifasini o'tamoqda. Markaziy Osiyodagi ko'p jihatdan mintaqadagi hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi avvalo O'zbekistonning manfaatlariga mos va xos. O'zbekiston o'z o'rnini va mavqeiga ko'ra Markaziy Osiyoning integratsiyalashuvi va globallashtirishiga hammadanda ham ko'proq ta'sir ko'rsata oladi.

O'zbekistonning mintaqadagi rolini tahlil qila turib, mamlakat Birinchi Prezidenti I.A. Karimov uning dunyodagi eng boy mamlakatlar safiga kirishi bu yerdagi qulay iqlim, nihoyatda katta mineral xomashyo resurslari, strategik materiallar va qishloq xo'jalik xom ashyosining katta zaxiralari mavjudligi bilan bog'liq deb ta'kidlagan edi. "Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston, - deb yozgan edi u, - kuchlar tengligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo'lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega"³¹ Ko'rsatilgan omillar majmui O'zbekistonning mintaqadagi nafaqat mavqeini, balki Markaziy Osiyodagi holat uchun uning alohida mas'uliyatini ham belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va strategik ro'li, uning demografik, iqtisodiy va ma'daniy resurslari bilan o'lchanadi. Aynan shu jihat davlatning ko'ptomonlama integratsiyalashuvi va boshqa geostrategik jarayonlarda o'z pozitsiyasiga ega ekanini bildiradi. O'zbekistonning davlat boshqaruvi sohasida geosiyosiy ahamiyati va geografik yutuqlari eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

³¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent, «O'zbekiston», 1997. 228-b



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent, «O'zbekiston», 1997. 228-b
2. S.S.Safoev Markaziy Osiyodagi Geosiyosat/ Toshkent-2005/31-b
3. BuxDu Geografiya kafedrasini/O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi /uslubiy qo'llanma / Buxoro 2008/7-8-b
4. Jumaniyozov X.S, Nigmanova U.B Uslubiy qo'llanma /Toshkent 2016/2-3-b
5. https://uza.uz/ar/posts/ozbekiston-demografiyasi-aholi-nikoh-va-migratsiya_812198#:~:text=2026%20yil%201%20yanvar%20holatiga%20ko'ra%2C%20O'zbekistonda,38%20million%20236%2C7%20ming%20kishini%20tashkil%20etdi